MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI BO‘LAJAK TARBIYACHILARINI TAYYORLASHDA INNAVATSION VA AXBOROT YONDASHUVLARINING ROLI

Qurbonova Baxtixon Qo’chqarbayevna
p.f.d.(DSc),prof
Xoshimova Mahliyoxon Faziljon qizi
Farg‘ona davlat universiteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi bo‘yicha 1-bosqich magistranti
E-mail: xoshimovamahliyo03@gmail.com Tel: +998 94 072 00 28

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24417590

Аннотация. В этой статье рассматриваются теоретические и практические аспекты реализации инновационного и информационного подходов в процессе профессиональной подготовки будущих воспитателей дошкольных образовательных организаций (ДОО) Республики Узбекистан. Анализируется значение цифровой грамотности и интерактивных методов обучения в контексте требований Нацилнальной учебной программы “Илк қадам”. На основе научных трудов отечественных и зарубежных исследователей обоснована необходимость развития инновационно-информационной компетентности педагогов.

Ключевые слова: дошкольное образование, будущие воспитатели, инновационный подход, информационная компетентность, цифровая грамотность, “Илк қадам”, профессиональная подготовка.

Abstract. This article discusses the theoretical and practical aspects of implementing innovative and informational approaches in the process of professional training of future educators of preschool educational organizations (PEO) of the Republic of Uzbekistan. The importance of digital literacy and interactive teaching methods in the context of the requirements of the National curriculum “Ilk qadam” is analyzed. Based on scientific works, the necessity of developing the innovative and informational competence of teachers is substantiated.

Keywords: preschool education, future educators, innovative approach, information competence, digital literacy, “Ilk qadam”, professional training.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari (MTT) bo’lajak tarbiyachilarini kasbiy tayyorlash jarayonida innovatsion va axborot yondashuvlarini amalga oshirishning nazariy hamda amaliy jihatlari ko’rib chiqiladi. “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturi talablari kontekstida raqamli savodxonlik va interaktiv o‘qitish metodlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotchilarning ilmiy ishlari asosida pedagoglarning innovatsion-axborot kompetentligini rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, bo‘lajak tarbiyachilar, innovatsion yondashuv, axborot kompetentligi, raqamli savodxonlik,“Ilk qadam” , kasbiy tayyorgarlik.

Kirish. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimining poydevori bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda [1]. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda, zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi [2]. F.R.Qodirovaning ilmiy izlanishlarida ta’kidlanganidek, maktabgacha ta’lim tizimidagi sifat o‘zgarishlari bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash metodikasini tubdan yangilashni talab etadi [4]. Shu sababli, talabalarda innovatsion-axborot kompetentligini shakllantirish kasbiy mahoratning muhim omiliga aylanmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘ajak tarbiyachilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi ta’lim jarayonini interaktiv va o‘yin shakllarida tashkil etishdan iboratdir. N.I. Rejametova tadqiqotlariga ko‘ra, innovatsion yondashuv an’anaviy yodlash usullaridan voz kechib, loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar hamda rivojlantiruvchi

o‘yinlarni joriy etish imkonini beradi [5]. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faolligini, mantiqiy fikrlashini va muloqot ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tizimida an’anaviy pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda, zamonaviy axborot yondashuvlari va tarbiyachilarning raqamli savodxonligini oshirish masalasi bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mashhur olima F.R. Qodirova o‘zining ilmiy-pedagogik izlanishlarida ta’kidlaganidek, sohadagi sifat o‘zgarishlari kadrlar tayyorlash tizimini zamon talablari asosida yangilashni taqozo etadi[4]. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, ularning mediakompetentligini shakllantirish ham muhim omil sanaladi. Zamonaviy tarbiyachi nafaqat an’anaviy metodlarni, balqi kompyuter va multimedia texnologiyalarini puxta egallashi, zamonaviy raqamli va elektron ta’lim resurslarini maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) amaliyotiga integratsiya qila bilishi shart. N.I. Rejametovaning tadqiqotlarida ko‘rsatilganidek, bunday innovatsion yondashuv ta’lim-tarbiya jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va loyihaviy shaklda tashkil etishga, bolalarning ilk rivojlanish davridayoq ularda axborot muhitiga nisbatan ijobiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi[5].

Multimedia taqdimotlari, interaktiv ta’limiy dasturlar va ko‘rgazmali raqamli materiallar mashg‘ulotlarni bolalar uchun tushunarli va qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, axborot kompetentligi tarbiyachining metodik ishlarini va ota-onalar bilan hamkorligini optimallashtiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun bo’lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya yondashuvlarini o‘zaro uyg‘unlikda tatbiq etish bugungi kun ta’lim sifatini tubdan oshirishning eng asosiy, strategik omilidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu integratsiyalashgan yondashuvlar talabalarda nafaqat chuqur nazariy bilimlarni, balki mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini, yuqori darajadagi raqamli madaniyatni hamda zamonaviy pedagogik mahorat refleksiyasini tizimli ravishda shakllantiradi. Bo‘lajak mutaxassislarning mediakompetentligini oshirish va raqamli ta’lim resurslaridan unumli foydalanish malakasi ularning kelgusi amaliy faoliyatida interaktiv, loyihaviy hamda muammoli vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etishiga zamin yaratadi. Pirovardida, oliy ta’lim tizimidagi bunday tub metodologik yangilanishlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini mutlaqo yuqori sifat bosqichiga olib chiqishni va har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. – Toshkent, 2020.

3. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasalari milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.

4.Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 688 b.

5. Rejametova N.I. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – Toshkent, 2021. – № 4. – B. 110-115.